


**QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING
SANOAT ISHLAB CHIQRISHI
2024-YIL YANVAR
(DASTLABKI MA'LUMOT)**





Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024-yilning yanvar oyida Qoraqalpog'iston Respublikasi korxonalarini tomonidan 1581,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023-yilning yanvar oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 1227,2 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 77,6 % ni tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatning– 6,8 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning–5,5 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning–25,9 % ga o'sishi kuzatildi.



Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish–27,1% ga kamayish kuzatildi.




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash–tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (koʻmir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni oʻz ichiga oladi.

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11,5 mlrd. soʻm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 0,7 % ga toʻgʻri keldi.





*Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni
ishlashning jami sanoat ishlab
chiqarishi hajmidagi ulushi*



yanvar oyida yirik korxonalar bo'yicha
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)

Ohaktosh



Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish



Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar	2024-yil yanvar	Farqi +/-
Ohaktosh, t.	16107,0	15239,4	-867,6
Gaz kondensati, ming t.	5,8	5,0	-0,8
Tabiiy gaz, mln. kub.m	94,7	79,2	- 15,5

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Ishlab chiqaradigan sanoat

Ishlab chiqaradigan sanoat bu–tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1227,2 mlrd. so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 77,6 % ni tashkil etdi.




Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0% ni (2023-yilning yanvar oyida–0,1%), o'rta-yuqori texnologiyali–57,3% (61,6%), o'rta-quyi texnologiyali – 4,0% (2,4%), quyi texnologiyali–38,7% (35,9%) ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish sohasining ulushi–57,8% (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 94,5%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi–19,0% (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 108,3%), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi–18,3% (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 130,7%) ga to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi—3,1% (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 122,3%), mebel ishlab chiqarishning ulushi—0,9% (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 163,1 %) ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar oyida Qoraqalpog'iston Respublikasida 57,6 ming tonna portlandsement (2023-yilning yanvar oyiga nisbatan 3,1 marta ko'paygan), 138,5 tonna makaron mahsulotlari (92,4% ga ko'paygan), 94,0 tonna o'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar (154,1% ga ko'paygan), 5,9 ming tonna paxta chigiti (33,0% ga ko'paygan), 2,9 ming tonna paxta tolasi (26,6% ga ko'paygan), 389,8 ming litr aroq (20,3% ga ko'paygan), 0,4 ming tonna o'simlik yog'i (11,7 % ga kamaygan), 0,4 ming tonna kalava ip (59,1% ga kamaygan) hamda 3,9 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (37,2% ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar	2024-yil yanvar	Farqi +/-
Aroq, ming litr 100 % li spirt	324,0	389,8	65,8
O'simlik yog'i, (tozalangan), t.	506,3	446,9	-59,4
Portlandsement, t.	18564,2	57600	39035,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t.	6230,6	3914,2	-2316,4
Paxta tolasi, t.	2288,9	2898,0	609,1

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, kimyo sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 57,3% bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,6% ga kamaygan va ishlab chiqarish hajmi 703,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo‘lgan ishlab chiqarish turlarini o‘z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o‘rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,1 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 22,3 % ga o‘ydi va ishlab chiqarish hajmi 38,1 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish–yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 15,3 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 32,4 % ga ko‘paydi va ishlab chiqarish hajmi 188,2 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish–spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,0 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 115,0 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 36,5 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar oyida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 17,5 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 8,8 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 214,9 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024-yilning yanvar oyida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,5 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 102,4% ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 17,8 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish–rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o‘z ichiga oladi. Lekin bu bo‘limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024-yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,5 % ni, fizik hajm indeksi 208,1 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 5,7 mlrd. so‘m kuzatildi.



Mebel ishlab chiqarish

Mebel ishlab chiqarish–korxonalar hamda muassasalar, oshxonalar mebellarini ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.



2024-yilning yanvar oyi yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi mebel ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,9 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 163,1 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 10,7 mlrd. so‘m ekani kuzatildi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, hududlar kesimida

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar–kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 335,1 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 21,2 % ini) tashkil etgan.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2024-yilning yanvar oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 107,5 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 85,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar	2024-yil yanvar	Farqi +/-
Elektrenergiya, mln.kVt.s	505,3	543,4	38,1
Issiqlik energiyasi, ming gkal	10,3	8,9	-1,4
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln. so'm	19767,8	23014,3	3246,5

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, hududlar kesimida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish—qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 8,0 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi





Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish


O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha 17,0 % ga hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 50,6 % ga ko'paydi. Shuningdek, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlarda 2,5 % ga kamayish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023-yil yanvar	2024-yil yanvar	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	522,1	786,4	264,3
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln.so'm	5064,5	5927,1	862,6
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar mln.so'm	1022,7	997,2	-25,5

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



 Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar

 Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra